



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



Depozit resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari

Shermukhamedov Bekzodjon Usmonovich, PhD

Toshkent moliya instituti, dotsenti

Yozishmalar uchun muallif elektron pochta: shermukhamedov@mail.ru

Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqti: 02.08.2022

Qabul qilingan vaqti: 08.08.2022

Tayanch so'zlar: depozit, depozit bazasi, depozit siyosati, balans, bank balansi, depozit operatsiyalari, muddatli depozitlari, samaradorlik, kredit.

Annotatsiya

Maqolada tijorat banklari depozit siyosati samaradorligini baholash jarayonining iqtisodiy mohiyati va mavjud qo'llanilayotgan uslubiyo'tni takomillashtirish yo'nalishlari bayon etilgan. Depozit siyosati umumiy bank siyosatining asosiy qismlaridan biri ekanligi ta'kidlangan, tijorat banklarining depozit faoliyatini amalga oshirish strategiyasi va taktikasi tahlil qilingan. Tijorat banklarining samarali depozit siyosatini amalga oshirish strategiyasi va taktikasini mustahkamlashga yo'naltirish bilan bog'liq ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

The indicators of efficiency in using deposit resources

Shermukhamedov Bekzodjon Usmonovich, PhD

Tashkent Institute of finance, PhD

Corresponding author: email: shermukhamedov@mail.ru

ARTICLE INFO

Received: 26.07.2022

Accepted: 01.08.2022

Key words: deposit, deposit base, deposit policy, balance sheet, bank balance sheet, deposit operations, time deposits, efficiency, credit.

Abstract

The article describes the economic essence of the process evaluating the effectiveness of deposit policy of commercial banks and the directions of improving the existing accepted methodology. It is noted that the deposit policy is one of the components of general policy of the bank, the strategy and tactics deposit activities of commercial banks are analyzed. Formed scientific proposals and practical recommendations related to the direction of strengthening the strategy and tactics of implementing an effective deposit policy of commercial banks.

Kirish

Bugungi kunda jahonda kapitalni jalb qilish va qayta taqsimlash, vaqtincha bo'sh pul mablag'larini to'plash va ularni joylashtirishda tijorat banklari yetakchi rol o'ynaydi. Tijorat bankini rivojlantirish kredit tashkiloti faoliyatining xususiyatlari, bank faoliyati sifat ko'rsatkichlarining kelgusidagi o'sishi va yaxshilanishidagi ustuvorliklarni tanlash uning mijozlarini bank faoliyati amalga oshirilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarni hisobga oluvchi iqtisodiy asoslangan va qat'iy ishlab chiqilgan depozit siyosatiga ishonitirish kabi masalalarni ta'minlamay turib mumkin emas.

Hozirgi sharoitda bank tizimini rivojlanishi bank xizmatlarini bozorga olib chiqish uchun informasion

texnologiyalardan keng foydalanish, eng yangi texnikaviy vositalar va ilg'or bank texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, depozit xizmatlarning jozibadorligini oshiruvchi uslublarini izlash bilan bog'liqdir. Shu sababli, tijorat banklari depozit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruvning yanada takomillashtirilgan modellarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatining kengayishi tufayli, ularning - depozitlarga, banklararo kreditlarga va boshqa bank resurslariga bo'lgan talabining kuchayishi vujudga keldi. Bank ishini samarali yuritish - uning faoliyatini to'g'ri tashkil etilganligiga, ya'ni bankning resurs bazasining mustahkamligi va bankning barqarorligiga bog'liq. Demak,

bank resurs mablag'larini oshirish uning samarali faoliyatidagi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shu sababdan ham, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha yetkazish belgilangan [1].

Adabiyotlar sharhi

Tijorat banklari depozit siyosati samaradorligini baholash jarayonining iqtisodiy mohiyati va unda qo'llanilayotgan uslubiyatni takomillashtirish muammolari ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Mazkur masalaning dolzarbligi va qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda mazkur sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga e'tibor qaratamiz.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.Z.Abdullayeva o'z tadqiqotlarida depozit amaliyoti bilan bog'liq munosabatlarni tahlil qiladi va moliya-kredit yoki bank muassasasiga berilgan pul mablag'lari yoki qimmatli qog'ozlar emas, balki bank omonatlari bilan bir qatorda bo'xona to'lovlari, yig'imlar, soliqlar va hokazolarni to'lash uchun kiritilgan badallar ham depozit sifatida talqin etiladi (Abdullayeva Sh.Z., 2017). A.A.Omonov esa, bank resurslarini boshqarishda strategik rejalashtirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish lozimligini shuningdek, moliyaviy resurslarni jalb etish va joylashtirishda muddatlar bo'yicha muvozanatlashtirish maqsadga muvofiqligi ta'kidlaydi (Омонов А.А., 2008). U.D.Ortiqovning fikricha, tijorat banklari depozit strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga qo'llashda tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, tijorat banklarining depozit siyosatida qo'llanilayotgan taktik vositalarning qay darajada depozit strategiyasiga mos kelayotganligini aniqlash imkoniyati tijorat banki depozit bazasining barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish asosida yuzaga keladi (Ортиков У.Д., 2008).

A.Burya depozit siyosati samaradorligini depozit resurslari barqarorligini ifodalovchi koeffitsiyentlar: depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'ining o'zgaruvchanligi, ushbu qoldiqlardagi o'zgaruvchanlikning turli turdagi depozitlar bo'yicha proporsionalligi va hisobvaraqlardagi qoldiqlarning barqarorligi orqali baholashni taklif etgan (Буря А., 2008).

Depozit siyosati samaradorligini baholashda qo'llanilayotgan uslubiy yondashuvlarni shartli ravishda uch guruhga ajratishimiz mumkin. Bunda M.Rostami tomonidan tijorat banklari faoliyatini baholashning reyting tizimiga asoslangan uslubiyot va ushbu uslubiyot yordamida kredit tashkilotlarining ma'lum bir guruhi yoki faoliyati yo'nalishtirishni tahlil etishda buxgalteriya hisobotlari yoki ekspert baholash asosida amalga oshirilishi bayon etilgan (Rostami M., 2015).

Tijorat banklari faoliyatini baholashda moliyaviy tahlilga asoslangan uslubiyot M.M. Gorbenco tomonida

ilgari surilgan bo'lib, mazkur uslubiyotga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri bank faoliyati natijalarini tahlil etishda mutlaq ko'rsatkichlardan foydalanish hisoblanadi. Shuningdek, tahlil protsedurasi ko'p bosqichli bo'lib, o'z tarkibiga: a) so'nggi hisobot davrlarida moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladigan gorizont talil; b) tadqiq etilayotgan moliyaviy ko'rsatkichlarda kuzatilayotgan tendensiyalarni aniqlashga xizmat qiluvchi trendlar tahlili; v) mutlaq moliyaviy ko'rsatkichlar tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlashga qaratilgan vertikal (tarkibiy) talil; g) amalda yuzaga kelgan moliyaviy koeffitsiyentlarni belgilangan me'yorlar bilan taqqoslashga asoslangan koeffitsiyentlar tahlilini qamrab oladi (Горбенко М.М., 2013).

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni jadvallar asosida qiyosiy talil, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash tizimli talil asosida statistik guruhlash, induksiya va deduksiya hamda ekspert baholash usullaridan ham unumli foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Depozit siyosati turlarini, shuningdek, tijorat banklarining aholidan pul mablag'larini jalb qilish bo'yicha faoliyatini tahlillarini solishtirar ekanmiz, shunday xulosaga keldikki, samarali depozit siyosatini yuritish uchun tijorat banklari depozit siyosatini qo'llash samaradorligini baholashi zarur. Depozit resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash mezon va ko'rsatkichlar tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin. Tijorat bankining depozit siyosatiga umumiy baho berish uchun ular qondirishi kerak bo'lgan asosiy talblar quyidagilardan iborat:

- bank rentabelligiga ta'sir etuvchi omillarning shartliligi;
- omonatlarning barcha xilma-xilligidagi munosabatlari va faol bank operatsiyalarini amalga oshirishning asosiy yo'nalishtirishlari;
- daromad keltiruvchi faol operatsiyalarda depozit resurslarining asosiy qismidan foydalanish zarurati.

Bank depozitlari resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun bank depozitlari resurslaridan foydalanish samaradorligining quyidagi ko'rsatkichlarini hisoblash taklif etiladi (1-jadval).

Depozit resurslarining rentabellik ko'rsatkichi qiymatining barqaror o'sishi ijobiy baholanadi va depozit resurslarini boshqarish samaradorligini ko'rsatadi. Depozit resurslarining rentabellik ko'rsatkichi qiymatining pasayishi salbiy baholanadi va ushbu tendensiyaning sabablarini aniqlash va bank faoliyati samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni izlash bo'yicha choralar ko'rishni taklif qiladi.

Bankning depozit resurslaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha yakuniy xulosa ma'lum bir davr uchun dinamikada taklif qilingan ko'rsatkichlarni hisoblashga asoslanadi. Bankning depozit resurslaridan foydalanish samaradorligi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun olingan qiymatlarni boshqa tijorat

banklarining o'xshash ko'rsatkichlari va tarmoq, mintaq, taqqoslanadigan guruhlar bo'yicha o'rtacha qiymatlar bilan solishtirish kerak. banklar va boshqalar.

Shunday qilib, depozit resurslarini boshqarish jarayoni resurslarning ma'lum (rejalashtirilgan) hajmini jalb qilish va ularni ma'lum likvidlik darajasiga ega bo'lgan va tavakkalchilik darajasi cheklangan eng foydali aktivlarga joylashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, bank aktivlarning joriy qiymatini maksimal darajada oshirishga va moliyaviy natijalarni optimallashtirishga intiladi. Buning uchun bank faoliyatining yakuniy samaradorligiga ta'sir qiluvchi quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- berilgan barcha turdagi kreditlar bo'yicha foizli

daromadlar, shuningdek aksiyalar bo'yicha dividendlar olish;

- qimmatli qog'ozlar portfelining bozor qiymatining o'zgarishi;
- barcha turdagi jalb qilingan resurslar bo'yicha foizlarni to'lash;
- yangi resurslarning sof kirib kelishi (chiqishi);
- joriy majburiyatlarni bajarish yoki mablag'larni boshqa turdagi investitsiyalarga o'tkazish uchun rejadani tashqari sotish zarurati tufayli aktivlar qiymatining o'zgarishi.

Jadval-1.

Depozit resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari (Jilan O.D., 2009)

Ko'rsatkichning nomlanishi	Belgilanishi va hisoblash formulasi	Ko'rsatkichning maqsadi
Transformatsiya koeffitsiyenti (Kt) (bank qisqa muddatli resurslardan o'rta va uzoq muddatli kreditlash uchun ajratishi mumkin bo'lgan mablag'larning umumiy miqdori talab qilib olinguncha depozit hisoblari miqdori va muddati bir yilgacha bo'lgan muddatli depozitlar bo'yicha debet aylanmalarini transformatsiya koeffitsiyenti ko'paytmasi yig'indisiga teng bo'ladi)	Kt1 = 1- (KKd/Dk) Kt2 = 1-(KKd/Dk-Ssch) Bu yerda, KKd – muddati bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatli kreditlarni to'lash bo'yicha debet aylanmasi (to'lovlarining butun hajmi bo'yicha, so'ndirish muddati 30 kungacha, 90 kungacha, 180 kungacha va shu kabi kreditlar uchun alohida hisoblanishi mumkin) Dk -muddati bir yilgacha bo'lgan depozit hisoblariga mablag'larni tushumi bo'yicha kredit aylanmasi (depozitlarning butun hajmi bo'yicha, so'ndirish muddati 30 kungacha, 90 kungacha, 180 kungacha va shu kabi kreditlar uchun alohida hisoblanishi mumkin); Ssch - mijozlarning hisoblariga mablag'lar tushumi bo'yicha kredit aylanmasi	Qisqa muddatli depozitlardan foydalanish, shu jumladan o'rta va uzoq muddatli kreditlarni ajratish uchun talab qilib olingunga qadar depozitlar, shuningdek muddatli passivlarni jalb etish hisobiga "uzun" aktivlarni moliyalashtirishning yetariligi bo'yicha bank imkoniyatlarini aks ettiradi.
Depozit resurslaridan (jalb etilgan mablag'lar va majburiyatlar) foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichi (kredit qo'yilmalarini moliyalashtirish uchun (Edr)) (Jalb etilgan mablag'lar va majburiyatlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash zaruriyati umuman kredit operatsiyalari faqat depozit resurslari bilan emas, balki boshqa jalb etilgan (qarz) resurslari bilan ham asoslanadiki, bu jalb etilgan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladigan kredit qo'yilmalari ulushini aniqlashga imkon beradi)	Edr = SD/KV)*100% Edr = (PS/KV)*100% Edr = (Ob/KV)*100% Bu yerda, D -depozitlarning umumiy miqdori; KV - kredit qo'yilmalarining umumiy miqdori; PS – jalb etilgan mablag'lar umumiy miqdori; Ob – majburiyatlarning umumiy miqdori	Agar Edr 100% ga teng bo'lsa, undabank jalb etilgan mablag'larning barcha hajmini kreditlash resursi sifatida foydalanadi; agar Edr 100%dan ortiq bo'lsa – bankda jalb etilgan mablag'larni faqat kredit resurslari sifatida emas, balki boshqa aktiv operatsiyalarni amalga oshirish manbai sifatida ham foydalanish imkoniyati mavjud; agar Edr 100% dan kichik bo'lsa, bank resurslarni samarasiz ishlatayotganligini anglatadi.
Jalb etilgan mablag'lar va chiqarilgan veksellar depozit resurslarning rentabellik ko'rsatkichi (Rd) (ushbu ko'rsatkichni barcha jalb etilgan mablag'larga va yoki qarz bo'yicha chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga nisbatan hisoblash tavsiya etiladi)	Rd = BP(ChP)/D*100% Rd = BP(ChP)/PS*100% bu yerda, BP(ChP) – bankning balans bo'yicha yoki sof foydasi	Bankka jalb etilgan mablag'lar (depozitlar)ning 1 so'miga qancha foyda to'g'ri kelishini, shuningdek bankning resurs bazasida jalb etilgan mablag'lar (depozitlar)dan foydalanishning umumiy samaradorligini ko'rsatadi.

Bir guruh olimlar (A. Parasuraman, V.A. Zeytxaml va L.L. Berri) tomonidan depozit siyosatining samaradorligini baholashda SERVQUAL (service - "servis" va quality - "sifat" so'larining qisqartmasi) modelining standart algoritmidan foydalanish mumkinligi qayd etilgan.

$$S_{qi} = \sum W_j(P_{ij} - E_{ij})$$


Bunda: S_{qi} – i stimulining qabul qilinishi sifati;

W_j – atributning muhimlik darajasi;

P_{ij} – j atributga nisbatan yaratilgan i stimulni qabul qilish sifati;

E_{ij} – i ko'rsatkich uchun me'yoriy hisoblanuvchi j atributi uchun kutilayotgan daraja.

Ushbu modelda raqamlarda ifodalangan beshta sifat indikatori (Q) qo'llaniladi. Har bir sifat indikatori 22 ta kichik mezonlardan iborat. Kichik mezonlarda qayd etilgan ko'rsatkichlar umumlashtirilib, tijorat banki depozit xizmatlarining sifati koeffitsiyenti aniqlanadi (Gounaris, S., 2005).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi jami depozitlari va xorijiy valyutadagi depozitlar, (<https://cbu.uz/uz/statistics>)

(1 yanvar holatiga, mlrd so'mda)

Tijorat banklari foiz stavkalaridan har doim iqtisodiyotni makro va mikro darajada tartibga solish uchun foydalaniladi. Agar iqtisodiyotni mikro darajada o'rganadigan bo'lsak, tijorat banklari tomonidan foiz siyosatini qay darajada samarali ishlab chiqqanligiga, ya'ni kredit va depozitlar bo'yicha o'rnatilgan foiz stavkalariga bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklari tomonidan depozit operatsiyalarini amalga oshirish va bo'sh turgan moliyaviy mablag'larni jalb etish bo'yicha hozirgi kunda raqobat kuchaymoqda. Banklar tomonidan turli xil shartlar asosida depozitlarning turlari oshib bormoqda. Milliy valyuta bilan bir qatorda xorijiy valyutadagi depozitlar ham keng rivojlanmoqda.

Tijorat banklariga bo'lgan ishonch yil sayin oshib bormoqda. Buni xorijiy valyutadagi depozitlarning jami depozitlardagi ulushi ortib borayotganligida ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2017 yilda jami depozitlarning 26,9 foizini xorijiy valyutadagi depozitlar tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib bu ko'rsatkich 43,1 foizga yetgan.

2017 yilda jami depozitlar 37,2 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, shundan xorijiy valyutadagi depozitlar 10,0 trln. so'mdan ortiqni tashkil etgan. 2021 yilga kelib esa jami depozitlar summasi 114,7 trln. so'm bo'lgani holda xorijiy valyutadagi depozitlar summasi 49,4 trln. so'mga yetgan.

Xulosa va takliflar

Tijorat banklarida depozit siyosati samaradorligini baholash uslubiyati masalalarini o'rganish asosida tijorat banklari resurs bazasida ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag'lari salmog'ining oshib borishi hamda jismoniy va yuridik shaxslardan jalb etilgan depozitlar salmog'ining kamayib borishi mazkur jarayonning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu holatni inobatga olgan holda, birinchidan tijorat banklari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha talablarning kuchaytirilishi banklarni uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini topish bo'yicha tadbirlarni faollashtirishga imkoniyat beradi. Bunday tadbirlar o'z navbatida uzoq muddatli (1 yildan oshiq muddatli) omonatlar bo'yicha taklif etilayotgan foiz stavkalarining oshishiga olib keladi. Bir qator makroiqtisodiy omillar ta'siri doirasida tijorat banklarining depozit portfelining tarkibiy tuzilmasida xorijiy valyuta shakllantirilgan omonatlar hajmining to'xtovsiz oshib borishi, qayd etilgan omillar tijorat banklarining kredit siyosatining maqsadi va amalga oshirish vositalari takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qonun hujjatlariga muvofiq xavfsiz ish yuritishlari yuzasidan belgilangan barcha iqtisodiy me'yorlarga qat'iy rioya qilishi depozit siyosatini ishlab chiqish jarayonida bank mijozlariga taklif etayotgan depozit xizmatlari tarkibiga paketli, innovatsion

xususiyatga ega bo'lgan depozitlarning mavjud emasligi, depozit siyosatining samaradorligiga salbiy ta'sir o'tkazadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2022.
2. Абдуллаева Ш.З. "Банк иши". Иқтисод-молия. 2017 й. -312 б.
3. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 35 б.
4. Ортиков У.Д. Банк ресурслари ва уларни бошқариш. "Молия, пул муомаласи ва кредит" и.ф.н. дисс. автореферати. Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси. – 19.09.2008. –Т., 2008. -20 б.
5. Буря А. Методика анализа клиентских средств банка -Москва : Вагриус, 2008 - 154 с.
6. Rostami M. CAMELS' Analysis in Banking Industry. Global Journal of Engineering Science and Research Management, 2015, vol. 2, iss. 11, pp. 10–26. <https://www.researchgate.net/publication/283854804>.
7. Горбенко М.М. Депозитная политика современных коммерческих банков // Проблемы экономики и менеджмента. 2013. № 5. С. 85–90. http://icnp.ru/sites/default/files/PEM/PEM_21.pdf.
8. Жилан О.Д. Депозитная политика коммерческого банка [Текст] / О.Д. Жилан. БГУЭП, 2009 - е. 145.
9. Gounaris, S. Measuring service quality in b2b services: an evaluation of the SERVQUAL scale vis-a-vis the INDSERV scale Journal of Service Marketing. - 2005. - № 19/6. - P. 421-435.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi <https://cbu.uz/oz/statistics>